




**XORAZM VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI**



**XORAZM VILOYATINING  
SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-MART  
(DASTLABKI MA'LUMOT)*



## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-mart oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3 833,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 115,7 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,8 %ni tashkil etdi.




**B**

Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash




**C**

Ishlab chiqaradigan  
sanoat



**D**


Elektr, gaz, bug' bilan  
ta'minlash va havoni  
konditsiyalash



**E**

Suv bilan ta'minlash;  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Yanvar -mart


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 9,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning – 1,7 % ga o'sishi kuzatildi, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 71,6 % ga va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 4,3 % ga kamaygan.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,27 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,007 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so'm

Yanvar -mart

FHI,% da



2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 709,7 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,8 %ini tashkil etdi.

2021- yil  
yanvar -mart


95,1 %

2022- yil  
yanvar -mart

96,8 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,06 %ni (2021- yilning yanvar-mart oylarida – 0,04 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 41,7 % (43,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,8 % (3,4 %) va quyi texnologiyali – 52,1 % (48,5 %)ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 42,7 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 299,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,4 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 25,9 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,4 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 84,3 %)ni tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da \*


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip




Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)



Maxsus yengil avtomobillar







2022- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 18 201,3 tonna (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 29,5 %ga oshgan), paxta chigiti 43 297,3 tonna (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 34,8 %ga oshgan), 7 822,6 tonna paxtadan yigirilgan ip (7,7 % oshgan), 17 329 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (43,8 % oshgan), 3 879 dona maxsus yengil avtomobil (51,3 %ga oshgan), o'simlik yog'i 4 278,7 tonna (27,6 % kamaygan), xo'jalik sovuni 762,8 tonna (28,1 % kamaygan) hamda 20 939,8 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,6 %ga kamaygan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar -mart	2022- yil yanvar -mart	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	12051	17329	5278
Maxsus yengil avtomobillar, dona	2564	3879	1315
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	7265,1	7822,6	557,5
Paxta tolasi,tonna	14058,5	18201,3	4142,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	22180,7	20939,8	-1240,9
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	5905,9	4278,7	-1627,2


yanvar-mart, yirik korxonalar bo'yicha

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,8 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 70,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,4 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,7 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 866,7 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 118,1 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,5 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 90,5 %ni va ishlab chiqarish hajmi 129,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2020- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 108,6 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 30,2 %ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 923,1 mlrd so'mni tashkil etdi.




### Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-mart oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 54,1 %ni va ishlab chiqarish hajmi 26,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2020- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,08 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 93,1 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,06 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 122,0 %ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-mart oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 200,8 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni, fizik hajm indeksi 89,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 12,3 mlrd so'mni tashkil etdi.







### Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 144,9 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni, fizik hajm indeksi 90,7 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2020- yil yanvar-mart oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 69,1 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 %ni, fizik hajm indeksi 21,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 60,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2020- yil yanvar-mart oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 43,7 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 114,4 % ga teng bo'lgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 41,2 %ni, fizik hajm indeksi 113,4 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 527,9 mlrd so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 101,9 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,7 %ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,3 %ga kamayganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt s	46,2	28,1	-18,1
Issqlik energiyasi, ming gkal	47,1	44,6	-2,5
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	480118,0	495247,0	15 129,0

yanvar – mart, yirik korxonalar bo'yicha

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,0 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar - mart	2022- yil yanvar - mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	1010687,0	1573258,0	562571
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	24562335,0	26844054,0	2281719
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	5528415,0	5246044,0	282371,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 55,7 %ga, tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 9,3 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 355,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 131,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 61,4 %ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar -mart

42,2%

2022- yil  
yanvar -mart

38,6%

### Nooziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar -mart

57,8%

2022- yil  
yanvar -mart




61,4%

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 74,3 %ni , Urganch shahrida 11,6 %ni va Xonqa tumanida 2,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (131,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida (138,4 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 74,3 %ni , Urganch shahrida 11,6 %ni va Xonqa tumanida 2,6 %ni tashkil etdi.





**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 86,3 %, shuningdek, Urganch shahrida 4,9 %ni, Xonqa tumanida 1,7 %ni tashkil etdi.

1 038,7


mlrd so'm

2021- yil yanvar-mart

1 445,6


mlrd so'm

2022- yil yanvar-mart




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi

61,4 %



2021- yil

96,8 %



2022- yil

139,2 %


Xorazm viloyati	139,2	445,6
Urganch shahri	114,8	70,7
Xiva shahri	59,9	10,7
Bog'ot tumani	118,7	10,1
Gurlan tumani	133,1	13,6
Qo'shko'pir tumani	109,7	8,6
Urganch tumani	114,7	14,1
Hazorasp tumani	95,6	9,7
Tuproqqal'a tumani	144,9	1248,1
Xonqa tumani	128,3	24,1
Xiva tumani	132,0	7,4
Shovot tumani	99,6	8,8
Yangiariq tumani	147,1	14,5
Yangibozor tumani	93,4	5,2

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 55,1 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 22,2 %ni, Xonqa tumanida 4,1 %ni tashkil etdi.




758,5 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-mart


909,7 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-mart




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

38,6 %



112,2 %

2021- yil



119,9 %

2022- yil

o'sish sur'ati  
mlrd so'm

**Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 54,2 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 14,2 %ni, Urganch tumanida 5,6 %ni, Xonqa tumanida 3,8 %ni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati**

**2021- yil**

2 747,6 mlrd so'm

**2022- yil**

3 833,9 mlrd so'm



117,0 %

2021- yil

115,7 %

2022- yil


Xorazm viloyati	115,7	3833,9
Urganch shahri	107,4	542,5
Xiva shahri	107,1	41,2
Bog'ot tumani	106,0	78,4
Gurlan tumani	145,1	147,3
Qo'shko'pir tumani	102,8	133,7
Urganch tumani	136,6	213,3
Hazorasp tumani	100,4	109,8
Tuproqqal'a tumani	110,2	2076,9
Xonqa tumani	104,0	144,2
Xiva tumani	108,2	68,1
Shovot tumani	106,7	91,5
Yangiariq tumani	120,0	96,1
Yangibozor tumani	98,7	90,9

FHI, % da

mlrd so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (36 638,0 ming so'm), Urganch shahrida (3 690,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 989,1 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.



o'sish sur'ati  
ming so'm

Xorazm viloyati

2021- yil

1449,1 ming so'm

2022- yil

1 989,1 ming so'm



115,3 %


2021- yil

113,8 %

2022- yil

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 618,4 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,1 %ni tashkil etdi.



### Xorazm viloyati

2021- yil

458,8 mlrd soʻm

2022- yil

618,4 mlrd soʻm



19,8 %

2021- yil

16,1 %

2022- yil



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 222,0 ming so'm bo'lgani holda, Tuproqqal'a tumanida 30 861,8 ming so'mni, Urganch shahrida 1 853,3 ming so'mni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati**

2021- yil

947,9 ming so'm

2022- yil

1 222,0 ming so'm



2021- yil

99,0 %

2022- yil

128,9 %

Xorazm viloyati	128,9	1222,0
Urganch shahri	122,0	1 853,3
Xiva shahri	74,9	236,8
Bog'ot tumani	108,5	183,1
Gurlan tumani	120,4	233,2
Qo'shko'pir tumani	105,6	109,6
Urganch tumani	109,3	243,4
Hazorasp tumani	96,6	116,3
Tuproqqal'a tumani	134,2	30861,8
Xonqa tumani	109,7	317,8
Xiva tumani	107,5	133,7
Shovot tumani	98,5	164,1
Yangiariq tumani	121,6	215,1
Yangibozor tumani	94,4	182,0

o'sish sur'ati

ming so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 361 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 825 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,9 % ) Urganch shahriga, 510 tasi (11,7 %) Urganch tumaniga, 401 tasi (9,2 %) Qo'shko'pir tumaniga, 387 tasi (8,9 %) Xonqa tumaniga va 364 tasi (8,3 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi bo'yicha 111 ta loyiha mavjud bo'lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar - mart oylarida 210,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 843 ming AQSH dollarlik mahsulot eksport qilinib, 389 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Dastur ijrosining shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 29 ta loyihada 38,592 mlrd so'mlik, Xiva shahrida 3 ta loyihada 0,050 mlrd so'mlik, Bog'ot tumanida 4 ta loyihada 3,038 mlrd so'mlik, Gurlan tumanida 12 ta loyihada 12,294 mlrd so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 4 ta loyihada 0,001 mlrd so'mlik, Urganch tumanida 10 ta loyihada 6,039 mlrd so'mlik, Hazorasp tumanida 5 ta loyihada 0,038 mlrd so'mlik, Tuproqqal'a tumanida 16 ta loyihada 135,957 mlrd so'mlik, Xonqa tumanida 5 ta loyihada 3,157 mlrd so'mlik, Xiva tumanida 6 ta loyihada 0,602 mlrd so'mlik, Shovot tumanida 6 ta loyihada 9,123 mlrd so'mlik, Yangiariq tumanida 4 ta loyihada 0,824 mlrd so'mlik va Yangibozor tumanida 7 ta loyihada 0,455 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

	2022 - yil yanvar-mart	2021 - yil yanvar-mart
Loyihalar soni, birlik	111	92
Korxonalar soni, birlik	94	65
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm	210,2	38,4